

QASDDAN BADANGA YENGIL SHIKAST YETKAZISH**Zokirova Xilola Xasanovna****Ergasheva Maftuna Xusan qizi**

Jizzax viloyati yuridik texnikum o‘quvchilar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14231435>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat tarkibi, yengil shikast yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlik, aybdorning qilmishi va yetkazilgan yengil tan jarohati o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, anatomik bus-butunligi yoki fiziologik faoliyatining buzilishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qasd, badanga shikast yetkazish, jarohat, mehnat qobiliyati, kvalifikatsiya, qilmish, jismoniy og‘riq.

INTENTIONALLY CAUSING MINOR BODILY HARM

Abstract. This article describes the composition of the crime, the act or inaction causing minor injury, the causal connection between the perpetrator's act and the inflicted minor injury, the violation of anatomical integrity or physiological activity.

Key words: Intent, bodily injury, injury, work capacity, qualification, act, physical pain.

УМЫШЛЕННОЕ ПРИЧИНЕНИЕ ЛЕГКИХ ТЕЛЕСНЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье раскрывается состав преступления, действие или бездействие, причинившее легкие телесные повреждения, причинная связь между действием виновного и причиненными легкими телесными повреждениями, нарушением анатомической целостности или физиологической активности.

Ключевые слова: Умысел, телесное повреждение, телесное повреждение, трудоспособность, квалификация, деяние, физическая боль.

Mazkur jinoyatning obyekti yengil tan jarohati yetkazilgan shaxsning sog‘lig‘i hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shaxs sog‘lig‘iga yengil shikast yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdorning qilmishi va yetkazilgan yengil tan jarohati o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash lozim.

Jinoyat kodeksi 109-moddasida:

1) badanga sog‘liqning qisqa muddatli yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan yengil shikast yetkazish;

2) badanga sog‘liqning qisqa vaqt, ya’ni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko‘p bo‘lмаган muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lмаган muddatga yo‘qotilishiga sabab bo‘lgan yengil shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelgan yengil tan jarohatlari jumlasiga sog‘liqning olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko‘p bo‘lмаган muddatga yomonlashuvi kiradi. Mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lмаган muddatga yo‘qotilishi deganda esa umumiyo mehnat qobiliyatining o‘n foizgacha yo‘qotilishi tushuniladi.

Sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lмаган muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan yengil tan jarohatlari jumlasiga uncha ko‘p bo‘lмаган, tez o‘tib ketadigan, oqibati og‘ir bo‘lмаган olti kundan uzoq davom etmagan shikastlar kiradi. Bu shikastlar lat yeyish, ternalish, shilinish, uncha katta bo‘lмаган g‘urra tarzida bo‘lishi mumkin.

Qilmishni JK 109-moddasasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilishda “badanga qasddan, sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qibiliyatining uncha uzoq bo‘lмаган muddatga yo‘qolishiga sabab bo‘lмаган darajada yengil shikast yetkazganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanganligini va mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik, faqat u shunday qilmish uchun shaxsga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab bir yil ichida takroran sodir etilgan (JK 109-moddasining birinchi qismi) holdagina kelib chiqadi.”¹

Sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuvi deganda sog‘liqning 6 kundan ko‘p ammo 21 kundan ko‘p bo‘lмаган muddatga yomonlashuvi yoki umumiyo mehnat qobiliyatining o‘n foizgacha yo‘qotilishi tushuniladi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning subyektiv tomoni aybning qasd shakli bilan xarakterlanadi. JK 109-moddasidagi jinoyatni sog‘liqning buzilishi yoki mehnat qibiliyatining yo‘qotilishidan qat’iy nazar o‘z tarkibiga yengil tan jarohatlarini qamrab oluvchi bezorilik (277-modda)dan ajratish lozim. Bunday ajratish aybdor qasdining mazmuni va nimaga qaratilganligi, u tomonidan sodir etilgan harakatlarning motivi, maqsadi va shu holatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xususan, 109-moddadagi jinoyatning motivi rashk, o‘ch olish, yoqtirmaslik va boshqalar bo‘lishi mumkin. JK 27-moddasidagi jinoyatning motivi esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bezorilik niyatları hisoblanadi.

JK 109-moddasini to‘g‘ri qo‘llashda yengil tan jarohati yetkazishni urish, do‘pposlash, qiyashdan farqlashni talab etadi.

¹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti” to‘g‘risidagi 6-sonli Qarori.

Qoidalarda badanga yetkazilgan shikastlar (tan jarohatlari)ning mohiyati ta’riflanar ekan, uning asosiy belgisi tana a’zolari va to‘qimalarning anatomik bus-butunligi yoki fiziologik faoliyatining buzilishi ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ulardan farqli ravishda urish va do‘pposlash ko‘rsatib o‘tilgan oqibatlarga sabab bo‘lmaydi, jismoniy og‘riq yetkazadi xolos.

Biroq, agar do‘pposlash jabrlanuvchining nafaqat qisqa muddatli og‘rig‘iga, balki sog‘lig‘ining yomonlashuviga sabab bo‘lga bo‘lsa, to‘qimalar anatomik bus-butunligining buzilmagan bo‘lsa ham sog‘liqning buzilishi har qanday a’zo funksiyasining buzilganligidan dalolat beradi va qilmish badanga shikast yetkazish tariqasida kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim.

Xulosa qilib aystsak, Jinoyat kodeksi 109-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan, do‘pposlash, jismoniy og‘riq beruvchi, ammo sog‘liqning yomonlashuviga sabab bo‘lmagan boshqa zo‘rlik harakatlarini jismoniy azob bermaydigan, lekin shaxsga ma’naviy ziyon yetkazadigan harakat – haqorat qilish (JK 140-moddasi 1-qismi)dan farqlash kerak bo‘ladi. Bular jumlasiga, masalan, shaxsning qadr-qimmatini kamsitadigan, ammo aytarli jismoniy og‘riq bermaydigan shapaloq urish, yuzga tupurish, ayol badaniga hayosizlarcha tegaverish, kiyimni kuch ishlatib yulib olish kabilar kiradi.

REFERENCES

1. Jinoyat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti” to‘g‘risidagi 6-sonli Qarori.
3. M.x. Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi jinoiy xuquqi kursi 3-tom. 2009.